Dastlabki ma’lumotlar

# 2022 – yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 – yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 8 328,4 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 7929,8 mlrd. so‘mni (103,5 %), o‘rmon xo‘jaligi – 333,7 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 64,9 mlrd. so‘mni (135,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.





# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,2 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,0 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,8 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022– yilning yanvar- sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (1299,4 mlrd. so‘m) va Sayxunobod (1175,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin shahri (24,9 mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (27,1 mlrd. so‘m), va Guliston shahri (198,5 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,6 %) yuqori o‘sish sur’atlari Sardoba (105,3 %), Yangiyer shahrida (104,9 %), Sayxunobod tumanida (104,5 %), Guliston (104,4 %), Sirdaryo (104,3 %), Boyovut (104,2 %) va Mirzaobod (103,7 %), tumanlarida kuzatildi. Aksincha Shirin shahrida (96,0 %), Xovos tumanida (100,1 %), Guliston shahrida (100,9 %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 7877,5 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 4507,4 mlrd. so'mni (103,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 3370,2 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**57,2 %** Dehqonchilik mahsulotlari



**42,8 %** Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 55,5 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 36,3 % i – fermer xo'jaliklariga, 8,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xovos tumanida (54,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shirin shahrida (98,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (24,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shirin shahrida (0,0 %), Guliston shahrida (1,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Xovos tumanida (40,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Sayxunobod (1,0 %) va Yangiyer shahrida (1,5 %) qayd etildi.

# Dehqonchilik

2022– yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4507,4 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,2 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar












2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 398,4 ming t. Donli ekinlar (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 95,0 % ga kam ) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 77,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 214,6 ming t. sabzavotlar (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 67,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 53,6 ming t. kartoshka (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz












2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 190,8 ming t. poliz (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda,poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 49,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Siradaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 32,3 ming t. meva va rezavorlar (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 22,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,6 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 12,3 ming t. uzum (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 7,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 86,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi)xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3370,2 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 103,9 % ga), 273,3 ming t. sut (105,0 % ga), 135,5 mln. dona tuxum (110,5 %) ishlab chiqarildi va 4025,1 t. baliq (138,2 % ga) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022 – yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 273,3 ming t. sut (2021– yilning yanvar-sentabrga nisbatan 105,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, ming dona**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 135,5 mln.dona tuxum (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 110,5 % ) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 73,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.



# Sirdaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# <u>Baliq</u>

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4025,1 t. (2021– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 138,2 % ga) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 69,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yining 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,5 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 89,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 83,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi, otlar umumiy sonidan 19,6 % i fermer xo‘jaliklariga, 77,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 36,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 57,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2022– yilning 1– oktabr holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 471,4 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 15445 boshga (3,4 %) koʻpaydi.

## Yirik shoxli qoramollar

Soni, ming bosh




Oʻsish surʼati




Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




Fermer xoʻjaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– oktabr holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha, jami yirik shoxli qoramollarning 89,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 168,9 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6025 taga (3,7 %) ko'paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 88,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 352,1 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 20683 boshga (6,2 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 83,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 15851 taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1240 taga (8,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 77,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022– yilning 1– oktabr holatiga koʻra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 903,7 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda parrandalar bosh soni – 1 756 130 taga (81,8 %) koʻpaydi.

## Parrandalar












2022– yilning 1– oktabr holatiga koʻra, parrandalar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,9 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

• 67-236-70-00